

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururasining kengaytirilgan yig'ilishi bo'lib o'tdi



2018-yil 31-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururasining kengaytirilgan yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Unda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ishtirok etdi.

Yig'ilishda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar va o'zgarishlar jarayonida prokuratura organlari tomonidan qilinayotgan ishlar va ular oldida turgan vazifalar muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari prokuratura organlari oldida turgan ustuvor vazifalar to'g'risida to'xtalib o'tdi.

Prokuratura organlari xodimlari islohotlarni samarali amalga oshirishda o'zlarining bor salohiyati, bilim va tajribasini safarbar etishi zarurligi ta'kidlandi. Qabul qilinayotgan qonun, farmon va qarorlarning amaliy ijrosini so'zsiz ta'minlash prokururaning eng muhim va dolzarb vazifasiga aylanmog'i lozim.

Yig'ilish ishtirokchilarining e'tibori farovon hayotimiz asosi bo'lgan tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, xorijiy investorlarning mamlakatimizda erkin faoliyat yuritishi uchun sharoitlar yaratish prokuratura organlari tomonidan kafolatlanishi zarurligiga qaratildi.

Prokurorlarning sektorlar rahbari sifatidagi faoliyatida eng muhim vazifalaridan biri odamlar hayotida ijobiy o'zgarishlarga erishish maqsadida hududlarni rivojlantirishga ko'maklashishdir.

Davlat boshqaruvini xalqimiz manfaatlaridan kelib chiqqan holda takomillashtirish prokuratura organlarining jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlashdagi rolini kuchaytirishni taqozo etmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev yig'ilishni yakunlar ekan, prokuratura xodimlari yuqori kasbiy malaka va yuksak insoniy fazilatlari bilan davlat organlari xizmatchilariga o'rnak bo'lishi, hamishaadolat va qonuniylik himoyasida turishi lozimligini alohida ta'kidladi.

Yig'ilishda tashkiliy masala ko'rib chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga muvofiq Prezidentning Davlat maslahatchisi lavozimida ishlab kelayotgan Otabek Murodov O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori etib tayinlandi.

Manba: president.uz